

**TASAVVUF FALSAFASI TARIXIDA NAQSHBANDIYLIK TA'LIMOTINING O'RNI**

Raxmanov Abdimalik Ergashevich

Termiz davlat universiteti,

falsafa fanlari nomzodi.

raxmanov-57@mail.ru

**ANNOTATSIYA:**

Maqolada islom ilohiyoti falsafasining yo'nalishlaridan biri bo'lgan tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi, tadrijiy rivojlanish tarixi va ta'limoti, mashhur tariqatlari haqida ma'lumotlar bayon qilingan. Asosiy e'tibor tasavvuf tarixidagi so'nggi mashhur tariqat – Naqshbandiylik ta'limotining muhim jihatlari tahliliga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf (so'fiylik), zohidlik davri, orifona tasavvuf, amaliy tasavvuf, nazariy tasavvuf, insonparvarlik, hurfikrlilik, tariqat, Naqshbandiylik, “Dil ba yoru, dast ba kor”, maqomat manzillari, hol martabalari, o'n bir qoida(rahsha).

**АННОТАЦИЯ:**

В статье освещены вопросы истории происхождения и развития, учения, знаменитых тарикатов суфизма. Основные внимания уделено анализу основных сторон учения Накшбандии – последнему знаменитому тарикату суфизма.

**Ключевые слова:** тасаввуф (суфизм), период аскетизма, просвещённый суфизм, практический суфизм, теоретический суфизм, гуманизм, свободомыслия, тарикат, Накшбандия, «Дил ба ёру, даст ба кор» («Сердце – Богу, руки – работе»), степени состояния, одиннадцать правил (рахша).

**ABSTRACT:**

The article highlights the issues of the history of origin and development, teachings, famous tarikats of Sufism. The main attention is paid to the analysis of the main aspects of the teachings of Naqshbandi - the last famous tariqa of Sufism.

**Keywords:** tasavvuf (Sufism), the period of asceticism, enlightened Sufism, practical Sufism, theoretical Sufism, humanism, freethinking, tariqa, Naqshbandiya, “Dil ba yoru, dast ba kor” (“Heart to God, hands to work”), degrees states, eleven rules (rahsha).

**KIRISH**

O'rta asrlarda islom ilohiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida paydo bo'lgan tasavvuf (so'fiylik) ta'limoti nihoyatda boy g'oyaviy mazmunga va amaliy ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, “Mamlakatimizda “jaholatga qarshi - ma'rifat” degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi

doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi” (1, 2-bet). Tasavvuf musulmon Sharq falsafasining yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida inson qalbini, ruxini poklashga, unda komil insoniylik sifatlarini vujudga keltirishga, shu negizda ijtimoiy munosabatlarni insoniylashtirishga qaratilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Tasavvuf, uning yurtimizdagi tariqatlari va asoschilari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar A.Navoiyning «Nasoim-ul-muhabbat», A.Jomiyning «Nafohot al-uns min xazarot al-quds», Xusayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy», Ali as-Safiyning «Rashahot ayn-al-hayot», Hoja Muhammad Porso Buxoriyning «Anis at-tolibin va uddat as-solikin», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratush shuaro» va shu kabi nodir asarlarda uchraydi. Ayniqsa yurtimizda shuhrat topgan tasavvuf tariqatlarining asoschilari al-Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahovuddin Naqshband va ularning izdoshlari yaratgan nodir asarlar tasavvuf tahlili uchun asosiy manbalardir. Keyingi yillarda tasavvuf tarixi va ta‘limotiga bag‘ishlangan ko‘plab risola va maqolalar yaratilmoqda. Bular rus tilida chop etilgan Ye.E.Bertelsning «Sufizm i sufiyskaya literatura», M.P.Stepanyansning «Filosofskie aspekty sufizma» degan risolasi va «Problemy poznaniya sufizma» maqolasi, A.Muhammadxodjaevning «Gnoseologiya sufizma», Nasafiyning «Hoja Ahmad Yassaviy», Orif Usmonning «Bahovuddin Naqshband ta‘limoti», Botir Valixo‘jaevning «Hoja Ahrori Vali», Najmiddin Komilovning «Najmiddin Kubro» nomli risolalari, «Yassaviy kim edi», «G‘oyiblar haylidan yongan chiroqlar» kabi to‘plamlar, «Tafakkur», «Muloqot» singari jurnallarda chop etilayotgan N.Komilov, Abdulhakim Shariy Juzjoniy, M.Oripov va boshqalarning maqolalari shular jumlasidandir. Ayniqsa tasavvufshunos olim N.Komilovning «Tasavvuf yoki komil inson axloqi» nomli kitoblari alohida diqqatga sazovordir.

### NATIJALAR

Tasavvuf falsafasi Movaraunnahr, Xuroson va Eron, umuman O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari diniy-falsafiy tafakkuri merosining eng muhim va o‘ziga xos qismini tashkil qiladi. Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega bir talimot bo‘lib, islom olamida VIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko‘rinishida kurtak yoyadi. Bunga sabab Payg‘ambar vafotidan keyin boylikka ruju qo‘yish, adolatsizlik, zo‘ravonlik avj ola boshladi, toat-ibodat o‘rnini dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu esa etiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Bular orasidan qanoat va zuhdni («zuhd» so‘zidan «zohid» so‘zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va boylar axloqiga qarshi norozilik sifatida tarkidunyochilik g‘oyasini targ‘ib etib, surunkali toat-ibodat bilan shug‘ullanuvchi toifa paydo bo‘lgan. Bu toifa kishilar zehnu-zakovat, aqlu-farosatda tengsiz, shariat ilmini suv qilib ichgan, toat-ibodatda mustahkam, o‘ziga xos fel-atvor, odob-axloqli kishilar bo‘lib, ularni ko‘proq «so‘fiy», “mutasavvuf” nomi bilan atab kelingan.

Takidlanganidek, so‘fiylik (tasavvuf) avvalo muayyan ijtimoiy harakat hamda g‘oyaviy talimot sifatida maydonga keldi. Bunga sabab, birinchidan, u inson qalbi va ruhiyatini nishonga olib, jaholat va xudbinlikka qarshi o‘laroq maydonga chiqdi va ruhiy-axloqiy poklikni targ‘ib etib keldi. Ikkinchidan, tasavvuf garchi islom bag‘rida nish urib, Quron va Xadislardan

oziqlangan, shariat ahkomiga tayangan bo'lsa-da, u diniy jaholat va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning turmush tarzi, zo'ravonlik, talonchilik va manfaatparastlikka zid tarzda mehnatkash xalq noroziligini ifodalab, el orasida keng yoyilib keldi va ilm-marifatga tashna ziyolilar qalbini band etdi (Qarang: 5, 3-bet). Shuni nazarda tutib, atoqli olim Ye.E.Bertels XX asr boshlaridayoq qayd etgan ediki: «Tasavvuf adabiyotini o'rganmasdan turib o'rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin emas..., bu adabiyotdan xabardor bo'lmasdan Sharqning o'zini ham anglash qiyin» (3, 54-bet). Tasavvuf murakkab diniy-falsafiy oqim bo'lib xilma-xil yo'nalishga ega. Unda 2 ta asosiy goyaviy yo'nalish yaqqol namoyon bo'ladi: Birinchi yo'nalish - bu o'tkinchi dunyo, mol-mulk, mansabga ixlos qo'yish Allohni unutishga, imonsizlikka olib keladi, degan g'oyaga tayanib, tarki dunyochilikni targib etganlar; azro'zi azalda peshonaga yozilgan taqdir borligiga, odam undan qochib qutila olmasligiga ishontirishga intilganlar. Ikkinchi yo'nalish – bu dunyo Alloh tomonidan odamlar, ularning insonlardek yashashi uchun yaratilgani, odam shu dunyodagi ezgu ishlari bilan u dunyoda xudo visoliga yetishi uchun og'ir, mashaqqatli poklanish yo'lidan borishini tashviq etganlar (orifona tasavvuf).

Shunday qilib, tasavvuf zohidlik va darvishlik, oriflik harakatlari sifatida paydo bo'lib, avvaldan bo'ylikka ruju qo'yish, adolatsizlik, zo'ravonlik kabi qator ijtimoiy illatlarni qoralovchi, insonlarning xudo oldidagi tengligi, kambag'al faqirlarga insoniy munosabatda bo'lish kerakligi to'g'risidagi demokratik mazmundagi qarashlarga, rasmiy islom aqidaviy ta'limoti va mutaassibligiga zid bo'lgan yuksak orifiy va hurfikrli tafakkuriga ega ediki, bu tasavvuf va u bilan bog'liq madaniyatga umuminsoniylik va erkin fikrlilik yo'nalishini berar edi. Shuning uchun ham tasavvuf keng xalq ommasi orasida, xususan, hunarmand-kosiblar, ma'rifatchi ziyolilar orasida keng tarqalib chuqur ijtimoiy zaminga ega bo'ldi. Tasavvufdagi insonparvarlik va hurfikrlilik g'oyalari, demokratik talablar uni ma'naviy hayot va madaniyatning eng keng va ommaviy oqimiga, eng yashovchan ta'limotga aylantirdi.

## MUHOKAMA

Tasavvuf talimoti birdaniga yuzaga kelgan emas, balki uzoq tadrijiy tarixga egadir. Olimlar tasavvuf tarixini ikki davrga ajratadilar: birinchisi- zohidlik davri, ikkinchisi- oriflik va oshiqlik davri. So'fiylarning o'zini ham zohid so'fiylar, orif so'fiylar, rind so'fiylar, faqir so'fiylar, faylasuf so'fiylarga ajratish mumkin.

Zohidlik davri so'fiylari (chunonchi: Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abuhoshim Kufiy va boshqalar) taqvo va parhezgarlikni bosh maqsad deb bilgan bo'lsalar, keyingi davr so'fiylari tafakkuriy-shuuriy rivojlanish - yani dunyoni va Ilohni bilish, anglash va tanishni asosiy maqsad deb hisoblaganlar. Zohidlik davrini tasavvufning boshlang'ich davri sifatida tilga oladilar. Oriflik davri deb ataganimiz bir necha bosqichlarga bo'linadi. Tasavvuf tarixida IX asr boshlaridan uning nazariy asoslari ishlab chiqildi, u o'ziga xos nazariy-falsafiy ta'limot, ilm sifatida rivojlana boshladi va uning turli tariqatlari maydonga keldi. Chunonchi, IX-X asrlar – xonaqohlarning paydo bo'lishi, tariqat rusumlarining shakllanish davri. XI-XII asrlar - tasavvuf maktablari, silsilalari, yo'nalishlarining tarkib topish davri. Bunda Misr, Bog'dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol o'ynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movaraunnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan.

XIII - XIV asrlar tasavvuf tarixida alohida bir mahsuldor davrdir. Bu davrga kelib tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy jihatdan o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan edi. Tasavvuf adabiyotining ravnaqi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ayniqsa Muhayiddin Ibnal Arabiy, Yahyo Suhravardiy, Najmiddin Kubro singari mutafakkir shayxlar, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy kabi ulug' so'fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar, uni falsafa va hikmat bilan boyitdilar. Tasavvuf falsafasidagi bu oqim uning tarixida «vahdat-ul-vujud» ta'limoti bilan shuhrat topdi. Mutasavvuflar endi koinot tuzilishi, odamlarning xususiyatlari, olam va inson munosabatlari, komil inson muammolarini tahlil qildilar. Natijada ularning asarlarida butun bir falsafiy tizim o'z ifodasini topdi. Shu tariqa tasavvuf Sharq tafakkurining ko'p asrlik tajribalarini o'z ichiga qamrab olib, uni rivojlantirdi, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va xadis ilmlarini birlashtirdi, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga intildi. Natijada tasavvuf Sharq kishisining tafakkur tarzi va axloq me'yorlarini belgilaydigan hodisaga aylanib qoldi. Xuddi shu davrda tasavvufning Sharqda keng tarqalgan yo'nalishlari - tariqatlar rivoj topdi. Jumladan, Yassaviylik, Kubraviylik, Mavlaviya, Hojagon yo'nalishidagi Naqshbandiylik, Suhravardiya va shu kabilar. Tasavvuf tarixi ikki davrga ajratilganidek, uning talimini ham ikki qismga: amaliy va nazariy tasavvuf tomonlariga ajratiladi. Amaliy tasavvufni axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarining muayyan tizimi tashkil etadi. So'fiylikning axloqiy qoidasini Abu Xomid al-G'azzoliy shunday ko'rsatadi: «kambag'allik uning bezagi, sabr-toqat uning naqshi, qanoat qilish uning oti, ishonch uning qadr-qimmatidir». Nazariy tasavvuf esa ilohiy hamda panteistik mazmundagi bilim va qarashlar, orifiy g'oya va talimotlardir. Tasavvuf ta'limotiga xos inson ruhiy-manaviy kamolotining asosiy bosqichlarini ham ana shu ikki qismga ajratish mumkin. Shariat va tariqatni tasavvufning amaliy qismi deb, marifat va haqiqatni uning nazariy bosqichlari deb tariflaydilar. Darhaqiqat ham shunday, chunki pir-muridlik qoidalari, odobiga rioya etish, solik (yani tariqatga qadam qo'ygan yo'lovchi) bajarishi lozim bo'lgan amaliy ishlar, irodat va ishorat usullari shariat va tariqat bosqichiga taalluqli. Marifat va haqiqat esa tasavvufning nazariy, botiniy ilmlari va uni egallash bosqichlaridir.

Tasavvuf adabiyotlarida tariqat atamalari, maqomot manzillari va hol martabalarini tushuntirishga alohida e'tibor qaratiladi. "Tariqat" – yo'l, ya'ni poklanish, ilohiy ma'rifatni egallashning ruhiy-ma'naviy kamolot yo'li demakdir. Uni "suluk", bu yo'ldan boruvchini "solik" (yo'lchi), solikning bu yo'ldagi ruhiy-ma'naviy kamolotini "sayr" yoki "safar" so'zlari bilan tushuntirganlar. Tasavvuf tariqatlarining o'ziga xos maqomot manzillari: 1) tavba, 2) vara' (taqvo), 3) zuhd (parxez), 4) faqr (faqirlik), 5) sabr, 6) xavf (qo'rquv), 7) rajo (umid), 8) tavakkul, 9) rizo hamda hol martabalar bo'lib, uni egallagan solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti sari safarida ilohiy ma'rifatga yo'l ochiladi. Tariqat ahli maqomot manzillarida jamiyki yomon fikrlar, yomon ishlar, yomon xulqdan voz kechadi, tavba qilib Alloh yo'lga – poklik, haqiqat va komillik yo'lga kiradi. Bu yo'lda barcha qiyinchiliklarga chidaydi, shayton vasvasasini yengib o'tadi va Haq rizoligiga, yuksak iymonga erishadi. Shu tariqa ular qalban va axloqan poklik tufayli hol martabasiga yetishadi. Ma'rifat tariqatning hosilasi va bevosita davomidir. Ma'rifat so'zi arabcha "arafa" – bilmoq so'zidan yasalgan. Ruhiy-ma'naviy kamolotning ma'rifat bosqichida so'fiy bilimning barcha darajalarini, ya'ni dunyoviy va ilohiy (zohiriy va botiniy) ilmlarni egallay borib Haqqa yetishadi, ilohiy Haqiqat uning qalbida ayon bo'ladi. Ilohiy

ma'rifatga, ruhiy-ma'naviy kamolot cho'qqisiga erishish yo'li to'g'risida shakllangan ilg'or konsepsiya orifona tasavvuf tariqatlari ta'limotidir. Orifona tasavvuf barcha ilmlarni qamrab oladigan, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va xadis ilmlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tasavvufdir. Tasavvuf tarixida turli tariqatlar almashinib turgan bo'lsada, inson manaviyati va uning tarbiyasi masalasi hech qachon tariqat ahli etiboridan chetda qolmagan. Ayniqsa, insonning botiniy olami, ichki ziddiyatlari, ruh va jism o'rtasidagi ziddiyat so'fiylarni qiziqtirgan. Ular insonda azaliy ikki qarama-qarshi kuch - rahmoniy va shaytoniy quvvatlar borligini, inson Alloh taolo yaratgan eng mo'tabar zot sifatida shayton qutqusini yengib, rahmoniy sifatlarga, ya'ni yuksak axloqiy-ma'naviy fazilatlarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar. Insonning hayotdagi o'rni, jamoa bo'lib yashash tartiblariga ham shu nuqtai nazardan qaralib, ijtimoiy nizolar va boshqa muammolarning mohiyati va tub sababini ham tasavvuf insonning tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mahv etish va ruhiy-axloqiy tarbiyalash yo'li bilan bartaraf etish mumkin, deb o'rgatadi. Tasavvuf ilmi inson tabiatidagi barcha salbiy jihatlarni umumiy nom bilan «nafs» deb ataydi va unga qarshi kurashadi.

Haqiqatan ham nafs xudbinlikni, riyokorlikni, ta'magirlikni, o'zim bo'lay falsafasini tug'diradi. O'tmishda ham, hozirgi jamiyatimizda ham uchraydigan ta'magirlik, poraxo'rlik, yulg'ichlik, talon-taroj, korrupsiya kabi illatlarning ildizi aynan «nafs»dir. Shuning uchun tasavvuf kishilarning o'zaro mol-mulk, hokimiyat uchun kurashini emas, balki har bir insonning o'z-o'zi bilan, ya'ni o'z nafs bilan kurashini ma'qullaydi va shunga hidoyat etadi. Nafsning yomonligini anglash - insonning o'zini, demakki, ilohiylik va ezgulikni anglashidir. Barcha so'fiylar hikmatida ana shu ma'no mavjuddir. Ular nafsni insoniylik dushmani, iymon dushmani deb qoralaydilar. Ayniqsa, yurtimizda al-Hakim at-Termiziy, Yusuf Xamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Xoja Axmad Yassaviy yo'nalishlarining bevosita ta'sirida shakllanib butun musulmon olamiga keng tarqalgan va hozirgi kunda ham butun insoniyatning ma'naviy kamolotiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelayotgan *naqshbandiylik* ana shunday ta'limotdir. Unda inson komilligini belgilovchi oliyjanob fazilatlar: insonparvarlik, adolatpeshalik, mehnatsevarlik, ezgulik, vatanga muhabbat kabi ulug' sifatlar targ'ib qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaydilarki, “qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi” (2, 14-bet). Naqshbandiylik ta'limoti insonni ma'naviy kamolotga va amaliy faoliyatga undovchi ana shunday ta'limot, ma'naviyatimiz hazinasi sifatida doimiy dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Naqshbandiylik XIV asrda Movaraunnarda paydo bo'lgan hamda butun musulmon olamiga keng yoyilgan eng yirik tasavvufiy tariqatdir. Uning asoschisi Hojai buzrug, yani **Hoja Bahovuddin Naqshband** (1318- 1389 yy.) hisoblanadi. Buxorolik bu fozil allomaning hayot yo'li to'g'risida Fariduddin Attorning «Tazkirat-ul-avliyo», Abdurahmon Jomiyning «Nafohot al-uns min xazarot al-quds», Alisher Navoiyning «Nasoim-ul-muhabbat» kabi asarlarida qimmatli malumotlar mavjud.

Naqshbandiya tariqatining asosiy diniy-falsafiy g'oyalari quyidagi uch manbaga tayanadi:

a) tariqatning o'n bir qoidasi. Ulardan to'rt mashhur kalima (chahor kalima): “Hush dar dam”,

“Hilvat dar anjuman”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar vatan” asosiy qoidalardir;

b) tariqatning asosiy shiori bo‘lgan “Dil ba yoru, dast ba kor”;

v) naqshbandiyona hikmatlar, ya’ni yuksak insonparvarlikni, halolu poklikni ta’riflashga qaratilgan Naqshband “virdlari”, ya’ni iltijo, nido va o‘g‘itlari tashkil etadi.

Yu.Hamadoniy va A.G‘ijduvoniy ta’limotlarini davom ettirib mazmunan boyitgan Bahouddin Naqshband hazratlari quyidagi o‘n bir qoidada lo‘nda ifodalangan ta’limotni yaratganlar:

1. “*Xush dar dam*”, yani inson bu dunyoni g‘animat bilib, har nafas hushyor bo‘lmoq, hayotning har bir lahasini, har bir nafasni shukronalik bilan kechirmoq, ezgulik, hayr, yaxshilikka qaratmoqligi lozim bo‘ladi.

2. “*Xilvat dar anjuman*”, yani anjuman ichra xilvatda bo‘lmoq, zohirda xalq orasida, jamiyat hayotida faol ishtirok etmoq, botinda esa Haq subxonaxu bilan bo‘lish. Hazratdan “tariqatingizning asosi nimadan iborat?”, deb so‘raganlarida, “xilvat dar anjuman ba zohir bo xalq va ba botin bo Haq” (“Halq orasidagi anjumanlarda tashqi tomondan go‘yo ular bilan, ammo ichki tomondan faqat Xudoni o‘ylab o‘tirish”), -deb javob berganlar.

3. “*Nazar bar qadam*”, yani inson har qadamda nazarni tutmoq, har qadamni o‘ylab bosishi zarur, toki u bekor ketmasin. Bu qoida o‘zlikni tanishga, idora etishga qaratilgandir. Har bir insonning o‘z-o‘zini nazorat qilishi esa uni komillikka, Haqqa tomon yetaklaydi.

4. “*Safar dar vatan*”, yani vatan ichra (bashariy tabiatda) safar qilmoq. Bu qoidada kishining hayoli, tasavvuri chuqurligi, tafakkur olamidagi sayri ko‘zda tutiladi Inson borki, u sayyohdir. Uning xayoli ham, jismi ham sayr etadi. Islomda safarning eng oliysi – bu Haq yo‘liga safardir.

5. “*Yodkard*” (eslamoq) – Alloh yodi bilan yashamoq, o‘tganlarni xotirlash, ezozlash. Bu qoida “Rashaxot”da (4, 36-bet) bayon etilishicha, lisoniy yoki qalbiy zikrdir.

6. “*Bozgasht*” (qayrilmoq) – bu qoidada foniy dunyoda yaxshilik va ezgulikka yuz o‘girish va boqiy dunyoga qayrilish ta’kidlanadi.

7. “*Nigohdosht*” (saqlanmoq) - yomonlikdan saqlanish, o‘zgalarga g‘amxo‘rlik, yordam ko‘rsatish. Bu qoidada kishi o‘zini har qanday shaytoniy nafs qutqusidan pok saqlashi kerakligi uqtiriladi.

8. “*Yoddosht*” (asranmoq) - nafsga erk bermaslik, manaviy poklik, o‘zni tiymoq, g‘araz va tamadan asranmoq, haq subhanahu va taoloni doimo yodda (xotirada) tutib, ogoh bo‘lishdir. Ma’lumki, naqshbandiya tariqatida Bahouddin Naqshbandning o‘zlari asos solgan qoidalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular uchta bo‘lib, tariqatning 9, 10, 11-qoidalarini tashkil etadi:

9. “*Vuqufi zamoni*” - inson zamon qanday kechayotganligidan, jamiyat, davlat, siyosat qay ahvoldaligidan ogoh bo‘lishi lozim;

10. “*Vuqufi adadiy*” - inson ularga umr, hayot Alloh tomonidan bir marta berilishi, umrni behuda o‘tkazmasdan, hayriya va ezgu ishlarga, kasb-hunar o‘rganishga sarf etmog‘i lozimligini unutmastligi kerak;

11. “*Vuqufi qalbiy*” - inson qalbida Alloh taolo naqshlanmog‘i, qalbi Alloh ishqida bo‘lishi darkor. (Qarang: 6, №4(58)).

Naqshbandiya tariqatiga binoan, yuqoridagi o‘n bir muqaddas qoidalarni mukammal bajargan kishi komil inson darajasiga yetishadi.

Naqshbandiyaning asosiy qoidalari bilan birga “Dil ba yoru, dast ba kor”, yani har bir kishining

dili yor (Yaratuvchi) bilan, qo‘li esa mehnat bilan band bo‘lmog‘i kerak hamda «Dil bo Haq, xud bo xalq», yani dil Haq (Yaratuvchi) bilan, o‘zing esa xalq (odamlar) bilan bo‘lmog‘ing lozim, degan shior tariqat negizini tashkil etib, insonni jamiyat hayotidan uzilmaslikka, o‘z faoliyatini el-yurt, jamiyat manfaatlariga xizmat qilish uchun bag‘ishlamoqqa chaqirgan, ezgulik, halollik, poklik, mehnatsevarlikka davat qilgan. Ular amal deganda birinchi navbatda Alloh nomini dilga jo qilib, ijtimoiy-foydali mehnat bilan shugullanishni, ta‘ma va tekinxo‘rlikdan hazar qilishni nazarda tutishgan. Hoja Ahrori Valiy (Ubaydulloh) naqshbandiylik targibotchisi sifatida ta‘madan jirkanish, tuhfa olmaslik, bir kasbni mukammal egallashga chaqiradi. Tasavvuf tariqatiga kirganlar uchun kasb-korning yomoni yo‘q, yomoni biror kasb bilan shug‘ullanmaslik, tekinxo‘rlik, ta‘magirlikka odatlanish hisoblanadi. Naqshbandiylik sulukini qabul qilgan Amir Temur, Ulug‘bek va bir qator Turkiston xoqonlari darveshlikni, tarkidunyochilikni qoralaganlar, ulardan shu dunyo ishlari bilan shug‘ullanib, xalol yashashni talab etganlar.

### XULOSA

Umuman, tasavvuf falsafasi va uning komil inson konsepsiyasi hozirgi kunda jamiyatimiz rivojlanishining yetakchi omili bo‘lgan ma‘naviyatni yuksaltirishning, barkamol avlod tarbiyasining sermazmun g‘oyaviy asosidir. Tasavvuf tarixi haqida to‘xtalar ekanmiz, Hazrati Bahovuddin Naqshbanddan keyingi davrni ham qayd etmog‘imiz lozim. XV- XVI asrlar Movaraunnahr va Xurosonda Naqshbandiylik to‘la tantana qilib, ravnaq topgan davr bo‘ldi. Ayniqsa, Hoja Ahrori Valining amaliy va Mahmudi Azam - Ahmadi Hojagonning ilmiy faoliyatlari tufayli naqshbandiylik mustahkamlandi, nufuzi oshdi va Hindiston, Arabiston, Turkiya hududlariga tarqaldi. Naqshbandiylikdan keyin tasavvuf tarixida boshqa tariqat vujudga kelgan emas. Tasavvufning XIV-XXI asrlar oralig‘idagi rivojlanishida nasshbandiylikning o‘rni sezilarlidir. Naqshbandiylik tariqati va uning talimoti faqat tarixiy hodisa bo‘lib qolmay, hozirgi kunda ham butun insoniyatning ma‘naviy mulki sifatida uning tarixiy-manaviy kamolotiga sezilarli tasir ko‘rsatib kelmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. Navoiy va naqshbandiylik.- T.: «Adabiy meros», 1991, № 4 (58).
2. Faxruddin Ali Safiy. Rashahot (obi hayot tomchilari). –T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.
3. Komilov N. Tasavvuf. – T.: “Movaraunnahr”-“O‘zbekiston”, 2009.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 25 yanvar 2020 yil, № 19(7521).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22 dekabr 2017 yil. – T.: “O‘zbekiston”, 2018.
6. Бертельс Е.С. Суфизм и суфийская литература.- М.: Наука, 1995.
7. Ergashevich, R. A. (2022). Socio-philosophical significance of the concept of national state sovereignty. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(3), 49-51.

8. Raxmanov, A. (2022). SHARQ RENESSANSI DAVRI GUMANIZMINING GNOSEOLOGIK VA ONTOLOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 668-674.
9. Raxmanov, A. E. (2021). Political independence and the creation of its legal basis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 726-729.
10. Raxmanov, Abdimalik Ergashevich (2023). ARISTOTEL VA SHARQ NATURFALSAFASI. *International scientific journal of Biruni*, 2 (1), 53-58.
11. Saidov, S. (2022). “TADBIR UL-MANZIL” RISOLASI–OILAVIY MUNOSABATLAR UCHUN DASTURULAMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 894-897.
12. Saidov, S. (2023). “TARIXI GARDIZIY” ASARINING TARIXIY QIYMATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 842-847.
13. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.